

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF
O'QUVCHILARI NUTQIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Nasriddinova Nasiba Alimjonovna

University of Innovation Technology

“Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim” kafedrası p.f.f.d (PhD) v.b. dotsent.

Nabibullayeva Durdona Ikromjonovna

University of Innovation Technology

“Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi I bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19382105>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim tarbiya berishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati hamda vazifasi keltirilgan. Ommaviy axborot vositalarining ta'lim sohasi bilan bog'liqligi va dars jarayonlaridagi uzviy aloqasi va samarali foydalari haqida so'z boradi. Maqolaning asosiy maqsadi ham yuqoridagi aytilganlarni tahlil qilish hamda ommaviy axborot vositalari asosida olib boriladigan didaktik metodlar, bola nutqini rivojlantirishga bog'liqligini ko'rib chiqishdir.

Kalit so'zlar: multimedia, virtual, nutq, boshlang'ich ta'lim, ommaviy axborot vositalari, metod, didaktika, kompyuter, axborot.

Аннотация. В данной статье рассматриваются значение и роль средств массовой информации в обучении и воспитании учащихся начальных классов. Освещается взаимосвязь СМИ с системой образования, их тесная интеграция в учебный процесс, а также эффективность их использования на занятиях. Основная цель статьи — проанализировать вышеизложенные аспекты и рассмотреть взаимосвязь дидактических методов, реализуемых на основе СМИ, с развитием речи ребёнка.

Ключевые слова: мультимедиа, виртуальный, речь, начальное образование, СМИ, метод, дидактика, компьютер, информация, компетенция.

Abstract. This article discusses the importance and role of mass media in the education and upbringing of primary school pupils. It addresses the relationship between mass media and the education system, their close integration into the teaching process, and the effectiveness of their use in classroom activities. The main aim of the article is to analyze the above-mentioned aspects and to examine the connection between media-based didactic methods and the development of children's speech.

Key words: multimedia, virtual, speech, primary education, mass media, method, didactics, computer, information, competence/competency.

Bugungi kunda texnika asrimizning rivojlanishi uchun ommaviy axborot vositalarilarining ta'siri juda katta va beqiyosdir. Ta'lim sohasida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini o'qitish tizimining ommaviy axborot vositalari bilan aloqadorligi dars mashg'ulotlarining sifatini qiziqarli va samarali olib berish uchun katta ko'mak beradi. Bu jarayonda turli metodik qo'llamalardan yoki dars jarayonida didaktik dars mashg'ulotlaridan foydalanish bolani diqqatini jamlash bilan birga zamon bilan hamnafas ta'lim berishning ham eng samarali usulidir. Bizga ma'lumki, ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifalaridan biri tilshunoslik fani erishgan yutuqlarga tayanib, til va nutqning dialektik bog'liqligi hamda ularning farqlarini ajratishga yo'nalgan o'qitish tizimini asoslashdan iborat.[1] Hozirgi kunda nutq rivojlanishi bilan bog'liq muommolar boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida ko'p uchraydi.

Bunga kichik yoshli bolalarning soʻz boyligi kamligi sabab boʻladi. Jumladan, fikrlarni jamlash va ifodalash jarayonida ham biz duch keladigan birinchi muammo bu soʻz tanlashdir.

Soʻzlar shunday tanlanishi kerakki, bizning fikrlarimizni aniq va loʻnda ifodalay oladigan boʻlishi kerak. Bu asosan gapning muhim ifodalovchisi feʼllarni toʻgʻri qoʻllanilishi bilan bogʻliq.

Feʼllarni toʻgʻri tanlash grammatikaga oid masala boʻlib, gapning aniq va ravon boʻlishini taʼminlashga xizmat qiladi.[2] Shu kabi nutq bilan bogʻliq muammolarni bartaraf etish uchun ham metodikamizning asosiy maqsadi ham bolalarda fikrlash mahsulini adabiy til meʼyorlari doirasida nutq sharoiti hamda nutq maqsadiga muvofiq ogʻzaki va yozma shaklda ongli, toʻgʻri, ravon, taʼsirchan bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantirish qonuniyatlari, tamoyillari, vositalarini tadqiq qilishdan iborat.[1] Maqsadga erishishda savol - javob metodidan foydalanamiz. Ushbu metod oʻquvchilarning fikrlashini faollashtiradi va nutqini boyitadi. Shu metod orqali ular mavzu boʻyicha mustaqil fikr bildiradilar va oʻz fikrini izchil bayon qilishni oʻrganadilar.[9] Matn ustida ishlash esa boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutqini rivojlantirishda asosiy shakl hisoblanadi.

Oʻquvchilar matnni oʻqib, tahlil qilib, asosiy gʻoyani ajratib olish orqali nutq koʻnikmalarini mustahkamlaydilar.[3] Ona tili oʻqitish metodikasi taʼlim tizimining barcha bosqichlarida oʻqitishning izchillik va uzluksizligini taʼminlaydi. Boshlangʻich sinflarda, asosan, bolalarning nutqini oʻstirish nazarda tutiladi. Boshlangʻich sinfda oʻquvchilar nutqini oʻstirishdan tashqari, ona tilidan elementar nazariy tushunchalarni amaliy oʻzlashtirishlari ham nazarda tutiladi.[8] Bunda bizga oʻqitish metodikalarini yanada samarali va sifatli boʻlishi uchun turli didaktik va leksik oʻyinlar hamda zamonaviy texnika va vositalardan foydalanish yordam beradi.

Shu qatorda didaktik oʻyinlar va grammatik mazmundagi mashqlar bolalarning tilga oid oʻyinlarini, ularning grammatika sohasidagi faolligini ragʻbatlantirishning muhim vositasidir.

Nutqning grammatik tizimini shakllantirish jarayonida sintaktik birliklar bilan amallar bajarish koʻnikmasi shakllanib boradi.

Bundan tashqari boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutq faoliyatini toʻgʻri shakllanishi uchun oʻqituvchi oʻquvchini soʻz boyligini oshirishga oid turli lugʻatlardan foydalanishi ham katta samara beradi. Lugʻat ishlaridan foydalanish orqali taʼlim beruvchi oʻquvchining umumiy nutq madaniyatiga taʼsir qiladi, unga umumiy ravishda qabul qilingan adabiy soʻzlar va ifodalarni maʼlum qiladi, ularni toʻgʻri tovush va grammatik shaklda ifoda qiladi, bunda u bolalarda uchraydigan sheʼva leksikasini bartaraf qiladi va adabiy til meʼyorlari bilan almashtiradi. Shu bilan birga taʼlimiy oʻyinlar ham boshlangʻich sinf oʻquvchilariga yangi bilimlar, tushunchalar berib boradi. Bu kabi oʻyinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati hamda aqliy qobiliyatlari takomillashadi.[6] Bundan tashqari boshlangʻich sinf darslarida didaktik oʻyinlar, turli metodlarni qoʻllashdan tashqari multimediali taqdimotlardan ham foydalanish oʻquv jarayonini boyitadi, samarali qiladi, oʻquvchilarning ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Mavzuni oʻrganishning istalgan bosqichida taqdimotlardan foydalanish mumkin.

Bolalar bu darslarga juda qiziqadi va ularni yaxshi koʻradi. Chunki, boshlangʻich sinflardayoq bolaga kompyuter qiziqarli, hayajonli ish quroli ekanligini va agar u kompyuterda oʻzi biror vazifa qilishni oʻrgansa, u bunday darslardan zavqlanadi va qoʻshimcha koʻrish orqali bilim oʻzlashtirib boradi deb tushunish mumkin.[7] Media taʼlimi interfaol, bolaga individual taʼsir etadigan usul sifatida taʼlim jarayoniga jadal surʼatlarda kirib kelmoqda. Media taʼlimi bolani mustaqil fikrlashga, ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga oʻrgatadi.[5]

Multimediali darslar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Video va audio materiallar asosida savol - javob va suhbat mashqlari nutq rivojida yuqori samaradorlikka ega.[4] Darsda kompyuterdan foydalanish esa o'qituvchiga qisqa vaqt ichida o'quv materialini mavzusi bo'yicha bilim darajasi to'g'risida ob'yektiv tasavvurga ega bo'lish va natijalarni o'z vaqtida tuzatish imkonini beradi. Shunday qilib, boshlang'ich sinflar darslarida kompyuterdan foydalanish maqsadga muvofiq va istiqbolli ko'rinadi. Bu vazifalarning bajarilishi ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl va usullarining takomillashuviga, maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va axborot bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi, mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash ko'nikmasini shakllantirishga olib keldi.[7] Shu bilan bir qatorda videotexnologiyadan foydalanish ham vizualizatsiya rolini oshirishga imkon beradi, o'quvchilarga o'rganilayotgan jarayonlar haqida to'liqroq va ishonchli ma'lumot beradi va ularni faol ishlarga jalb qiladi.

Konsolidatsiya bosqichida kompyuter yordamida siz o'quv materialini o'zlashtirish darajasini kuzatishingiz mumkin. Buning uchun sinf odatda guruhlariga bo'linadi, ularning har biri o'z rejimida yoki kompyuterlar soni bo'yicha tanlab ishlaydi. Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va tizimlashtirishda kompyuterning grafik imkoniyatlaridan foydalaniladi, bu esa o'quvchiga materialni o'zlashtirish darajasini aniqlashga va xatolarni tuzatishga yordam beradi.[10] Bundan tashqari ona tili darslarida o'quvchilarga nutqiy kompetensiya tarkibiy elementlarining funksional mazmunini singdirish va amalda qo'llashga o'rgatish ularning jamiyatda kommunikativ aloqaga kirishlarida, og'zaki va yozma muloqot jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tiliga oid kompetensiyalarini shakllantirish hozirgi davr talabidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili faniga oid savodxonlikni oshirish bilan birgalikda ularda fanga oid bilimlarni rivojlantirish, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni yuksak salohiyatga ega bo'lishiga ko'maklashadi.[11] Bugungi kunga kelib internet - resurslaridan foydalanish o'quvchilar e'tiboriga bosma ko'rgazmali qurollar orasida har doim ham uchramaydigan katta formatdagi bir qancha reproduksiyalarni taqdim etish imkonini berdi.

Rasmlardagi reproduksiyalarni o'rganish bolalarning so'z boyligini faollashtiradi, o'quvchilarda bosqichma - bosqich matn yozishda o'z fikrini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi va shu bilan birga ularda atrofda olamga, tabiatga, hayvonlarga, mehnatga, insonlarga muhabbat haqida to'g'ri tasavvurlarini shakllantirishga hissa qo'shadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron qo'llanmalar darslarini diversifikatsiya qilishga, bolalarni o'qitishga individual yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi. Kompyuter texnikasining imkoniyatlari elektron resurslaridan foydalangan holda istalgan mavzu bo'yicha qiziqarli darsni tez, eng muhimi, sifatli tayyorlash imkonini berishi ham muhim. [10]

Foydalangan asosiy adabiyotlar

1. Hamroyev A.R, Po'latova Y.A "Ona tilini o'qitish metodikasi" Toshkent - 2021 384 b. 7 b-13 b.
2. Shomaksudova S.X "Ommaviy axborot vositalarida yozma matn, nutq va munozara". Toshkent Iqtisod - moliya 2018. 181 b. -19 b.
3. Qosimova K "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent Nosir nashriyoti - 2009. 351 b. -4 b.
4. Raximov U "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Innovatsiya nashriyoti, 2021. 230 b. 99 -101 b.

5. Nizomova Sh. "Bolalar nutqini oshirish nazariyasi va texnologiyalar" Buxoro -2022. 145 b. -133 b.
6. Babayeva D. "Bolalar nutqini o'qitirish nazariyasi va texnologiyasi. Toshkent: Innovatsiya - Ziyo. 2022. 374 b. -118 b.
7. Sattorova X. J "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" 2023. 2-3 b.
8. Jo'rayev O "Til o'qitish metodikasi", Sharq nashriyoti. 2017. 290 b. 110-113 b.
9. Yusupov M "Ta'lim metodlari nazariyasi", Fan nashriyoti, 2016. 300 b. 142 b.

Internet ma'lumotlari

10. <http://interscience.uz>
11. <https://jurnal.qurilishtalim.uz>